



SHAHAR TASHQARISIDAGI TURISTIK REKREATSION HUDUDLARNI KOMPLEKS TASHKIL ETISH MASALALARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15498124>

*Nazarova Dinara Anvarovna PhD, Toshkent Turin politexnika universiteti professori
Istamov Doniyor Asliddin o'g'li. Toshkent Kimyo xalqaro universiteti magistranti*

Annotatsiya: O'zbekiston turizm sohasi, yo'nalishlari, uning hozirgi holati, zamonaviy hamda mukammallashtirish ehtiyoji maqolamizning asosiy mavzulari. Turistik-rekreatsion hududlarning tasnifi, maqsadiga ko'ra turlari va ularning standartlari avalo taqdiqoq o'tkazish, so'ng tahlil qilish uchun bilinishi kerak bo'lgan omillar hisoblanadi. Turistik-rekratsion hududlar tasnifini o'rganish, so'ng ularga bog'liq holatlar, muammo va cheklovlar aniqlash, bartaraf qilish va rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish sohani rivojlantirish kvintessentsiyasini namoyon qilishda yordam beradi.

Kalit so'zlar. Turistik-rekreatsion hududlar, turistik bazalar, kempinglar, mehmonxonalar, sanatoriyalar, kurortlar, dam olish uylari, chang'i kurortlari, turistik marshrutlar, qoyalar, veloyo'llar, sog'lomlashtirish, dam olish, sayohat qilish.

Аннотация: Основными темами нашей статьи являются туристическая отрасль Узбекистана, её направления, текущее состояние, современные аспекты и необходимость совершенствования. Классификация туристско-рекреационных территорий, их виды по назначению и стандарты являются факторами, которые прежде всего необходимо изучить, а затем проанализировать. Изучение классификации туристско-рекреационных зон, выявление связанных с ними условий, проблем и ограничений, а также

разработка концепции их устранения и развития способствует отражению квинтэссенции развития данной сферы.

Ключевые слова: Туристско-рекреационные зоны, туристические базы, кемпинги, гостиницы, санатории, курорты, дома отдыха, горнолыжные курорты, туристические маршруты, скалы, велодорожки, оздоровление, отдых, путешествия.

Abstract: Tourism holds a significant place in Uzbekistan's economy and social development. In recent years, there has been a growing interest in improving tourism infrastructure, diversifying tourism directions, and attracting international visitors. The current state of the industry demands not only a comprehensive analysis but also a strategic approach to sustainable development.

Key words: Tourist and recreational areas, tourist bases, campgrounds, hotels, sanatoriums, resorts, holiday homes, ski resorts, tourist routes, cliffs, bike paths, wellness, leisure, travel.

Kirish

Turistik-rekreatsion hududlar – bu insonlarning dam olish, sog‘lig‘ini tiklash, atrof-muhitni o‘rganish, jismoniy va ruhiy quvvatlarini tiklash maqsadida tashrif buyuradigan maxsus hududlardir. Bu hududlarni loyihalashda o‘ziga xos funksional zonalashuvi, landshaft tizimi, muhandislik, ekologik hamda ijtimoiy infratuzilma kabi omillar uchun qo`yiladigan talablarga alohida e`tabor berish lozim.

Turistik-rekreatsion hududlar mintaqaviy va milliy rejorashtirishning muhim qismidir, chunki ular faqat ijtimoiy emas, balki iqtisodiy, ekologik va madaniy funksiyalarini ham bajaradi. Ularni tashkil etishda inson faoliyatining tabiatga ta’sirini kamaytirish, transport qulayligi va yil fasllariga mos rejorashtirish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa tabbiy omillar: quyosh va shamol yo`nalishlari, hudud iqlimining turistik-rekreatsion hududlarning funksiyalariga bog`liqligi e`tiborga olish zarur bo`lgan jihatlardan biridir. Bir xillikdan yiroqlashish har bir turistik hududni geografik joylashuviga, relyefiga mos funksiyanal xizmat ko`rsatishini ta`minlagan holda loyihalash har bir manzildagi turistik-rekreatsion hududni o`ziga

xos va takrorlanmas ko`rinishdagi shaharsozlik obyekti namunasi bo`lishiga, eng asosiysi mukammal turistik maskan ko`rinishiga olib kelishiga xizmat qiladi.

Turistik-rekreatsion hududlari nafaqat yuqoridagi funksiyalarini bajaruvchi xizmat ko`rsatish obyekti sifatida, balki ekologik muvozanatni saqlovchi, farovonlikni oshuruvchi va iqtsodiy rivojlanishni qo'llab quvvatlovchi elementlar ham hisoblanadi.

Mavzuni yanada oydinlashtirish maqsadida turistik-rekreatsion hududlarning tasniflari bilan tanishib chiqamiz.

1-jadval

Nº	Mezoni	Toifa / Tushuntirish
Hududiy joylashuvi		
1	Shahardagi	Shahar ichidagi joylar: bog‘lar, sayilgohlar, botanika bog‘lari
2	Shaharga yaqin	Shahar hududidan 20–40 km radiusda joylashgan hududlar
3	Shahar tashqarisidagi	Tog‘li, suvli, tabiiy hududlar (masalan, Chorvoq, Chimgan)
Funksional maqsadi		
1	Turistik sayohatlar uchun	Turistik bazalar, kempinglar, tarixiy joylar
2	Sog‘lomlashtirish uchun	Sanatoriylar, kurortlar, davolash muassasalari
3	Ekstrim sport uchun	Chang‘i, trekking, paragliding, veloyollar
4	Aralash funksional	Bir nechta maqsadni birlashtirgan hududlar (masalan, Amirsoy: sport + dam olish)
Dam olish davomiyligi		
1	Qisqa muddatli	1 kunlik safar, ekskursiya, shahardagi dam olish joylari
2	O‘rta muddatli	2–7 kunlik dam olish, haftalik sayohatlar
3	Uzoq muddatli	7 kun va undan ortiq – ta’til, sog‘lomlashtirish, ilmiy izlanish

Shahar tashqarisidagi rekreatsion zonalarni shakllantirishdagi shaharsozlik va me’moriy-rejalashtirish yondashuvlari.

Shahar tashqarisidagi turistik-rekreatsion hududlarni loyihalash shaharsozlik va me’moriy rejallashtirisih asoslariga muvofiq amalga oshiriladi. Bunda e’tiborga olish lozim bo’lgan geografik joylashuv, tabiiy iqlimiylar, ko’rsatkichlar, relyef, transport tizimi aholining joylashuvi va oqimi, ularning ehtiyojlari kabi muhim

omillar mavjud. Shaharsozlik nuqtai nazaridan qaralganda turistik-rekreatsion hududlar ham shahar va uning aholisi uchun muhim element hisoblanadi. Ular shahar muhiti va tabiiy hududlar o`rtasidagi ko`prik vazifasini bajarib, shahar aholisini dam olish uchun tinch, zichlik yuqori bo`lmagan hududlarga ya`ni shahar tashqarisiga ko`chishini ta`minlaydi. Funksional jihatdan dam olish uchun shaharning zich, shovqin, vaqt tezlashgan muhitiga nisbatan tabiat qo`ynidagi tinch, bepoyon, keng perspektivali muhitlar nisbatan uyg`un va samarali hisoblanadi. Turistik-rekreatsion zonalarni tashkil etishda tabiiy muhitga zarar yetkazmaslik kerak. Tabiatning o`simgilklar dunyosi, hayvonot olami uning ladshaft va relyefi bilan ehtiyojkorlikda ishslash talab qilinadi. Suv va oqava suvlarning yo`nalishlari, uning miqdorining o`zgarishi tabiat muvozanatining buzilishiga olib kelishi mumkin. Birgina Orol dengizini mison qilib oladigan bo`lsak, undagi suv sathining pasayishi juda katta iqlim o`zgarishlarga sabab bo`lmoqda. Buni nazaridan qochirish mumkin emas. Turistik-rekreatsion zonalar tashrif buyuruvchilarining turli ehtiyojlarini qondirishga moslashtiriladi. Insonlar ushbu joylarga dam olish, sport bilan shug`ullanish, madaniy hordiq olish, tabiatni o`rganish yoki kuzatish uchun borishadi. Inson ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda dam olish uchun yashil maydonlar, ko`llar, o`rmonlar, yurish yo`laklari, kemping zonalar, sport bilan shug`ullanishlari uchun sport zonalarida futbol, basketbol, voleybol, tennis va boshqa sport maydonlari, madaniy markazlar sifatida teatr, amfiteatr, sahnalar, tabiatni o`rganuvchilar uchun ekologik joylar va ekologik ta`lim uchun mahsus hududlar tashkil etish maqsadga muvofiq bo`ladi. Ushbu hududlarni zonalashtirishda bino yoki inshootlarning arxitekturasi tabiat bilan uyg`unlashuvchi estetik jihatdan yoqimli va innovatsion shakl va uslubda bo`lishi kerak. Hajmiy-fazoviy kompozitsiyalarning yechimlari to`g`ri topilishi muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari hududlarning landshaft elementlarida kichik arxitekturaviy shakllarning ya`ni o`rindiqlar, yo`l-yo`lakay dam olish soyabonlari, kafelarning mavjud bo`lishi ham dam oluvchilarga qulaylik tu`gdiradi hamda insonlarning bir-birlari bilan muloqotda bo`lishlari, vaqt ni maroqli va zerikishlarsiz o`tkazishlariga imkoniyat yaratadi. Yuqorida keltirilgan imkoniyatlarni, sharoitlarni ko`rsata olish

va tashrif buyuruvchilar uchun mukammal rekreatsion hudud tushunchasini uyg`ota olishning asosiy yo`llaridan biri bu transport tizimidir. Turistik-rekreatsion hududlar va ularga olib boruvchi yo`llar qulay va oson transport tizimida tashkil etilishi lozim. Insonlarning mustaqil kelishlari uchun avtomobil va velosiped yo`llar, piyodalar yo`laklarini, jamoat bo`lib tashrif buyuruvchilar uchun avtobus va marshrutlar qatnovini yo`lga qo`yishga e`tibor berish kerak.

Turistik-rekreatsion hududlarni tashkil etishda imkoniyatlar, qulayliklardan tashqari tejamkorlik va samaradorlikka ham alohida e`tibor qaratish lozim. Mukammal turistik-rekreatsion zonalarni tashkil etishda chet el tajribalari, tashkil usullari va g`oyalari, arxitektura va shaharsozlik yechimlarini analiz qilish, o`z iqlim va urf-odatlarimizga moslashtirish uning mukammal hudud bo`lishida muhim ahamiyat kasb etadi. Muqobil energiya manbalari, quyosh panellaridan foydalanish orqali, hudud landshaftini to`g`ri loyihalash orqali, hudud binolarning tarz qismlarida energiya ishlab chiqaruvchi va energiya tejamkor elementlar ishlatish orqali hududni isitish-sovutish yoki yoritish uchun sarflanadigan energiya manbaaini sezilarli darajada tejash ko`zda tutilishi lozim.

Chet el va mahalliy tajribalar asosida turistik-rekreatsion hududlarni kompleks tashkil etish yondashuvlari.

Turistik-rekreatsion hududlarni tashkil etishda mahalliy va chet el tajribalarini o`rganish, ularni kamchiliklari, imkoniyatlarini solishtirish orqali amalga oshiriladi. Bunda asosiy maqsad turizmning rivojlantirilishidan ko`ra ko`proq hududning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik barqarorligiga hissa qo`shishdir. Chet el va mahalliy tajribalarga tayanib ekoturizm, infratuzilmalar, hududdan unumli foydalanish, yangi texnologiya va usullarni ishlab chiqish va qo`llash, shu bilan bиргаликда qadimiy va madaniy yodgorliklarni asrash va turistlarni jalb qilish sohalarida ham yangicha yondoshuvlar konseptsiyalarini ishlab chiqish va tadbiq etish mumkin bo`ladi.

Chet el turizmi tajribalarini o`rganadigan bo`lsak, turli davlatlarda turli xil sohalar bo`yicha yechim topilgan tajribalarni ko`rish mumkin. Bu borada Shvetsariya tog`li hududlaridagi turistik hududlarda transport infratuzilmasi poyezd va funikulyorlar (qiya yo`nalishda, qisqa masofada yuk va yo`lovchilarni vagonlarda

tashiydigan tor (1000 mm) izli temir yo‘l. Vagonlari elektr dvigatel, chig‘ir (lebyodka) va po‘lat arqon (kanat) vositasida harakatlantiriladi) orqali amalga oshirilishiga erishdi. Bu orqali hududda transport xizmati sifatini yuqori darajaga olib chiqdi. Birlashgan Arab Amirliklari turizmning xizmat hajmini kamaymasligi uchun harorat nazorat qilinuvchi plyajlar va yopiq dam olish maskanlari tashkil etdi. Turkiyada yirik dam olish maskanlarida sayyoohlar uchun bozorlar tashkil qilinmoqda. Bu sayyoohlarning piyoda sayr qilishlari, tabiat va atrof muhida ko‘proq vaqt o‘tkazishlari, boshqa millat vakillari bilan muloqotda bo‘lishlari, ma‘lumot almashinishlari va taasurotlarni bo‘lishish hamda o‘z xaridlari orqali iqtisodiyotga ham o‘z hissalarini qo‘lishlariga sabab bo‘ladi. Rivojlangan davlatlarda raqamli texnologiyalar va sun‘iy intellekt yordamida xizmat ko‘tsatish yo‘lga qo‘yilgan. Bu orqali turistlarni o‘zlarini qiziqtirgan turistik hudud haqida osonroq va ko‘proq ma‘lumot olishlari, joylarga va transportga oldindan buyurtma berishlari mumkin.

Mavjud turistik-rekreatsion infratuzilma holati

Toshkent viloyati katta turizm salohiyatiga ega bo‘lsa-da, mavjud infratuzilmaning rivojlanishida bir qator muammolar yuzaga kelmoqda. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti doktoranti, iqtisodchi va turizm sohasida ilmiy tadqiqotlar olib boruvchi mutaxassis Maryamxon Gapparovaning 2023 yilgi tadqiqotlariga ko‘ra viloyatda mehmonxona biznesi, transport infratuzilmasi va zamonaviy turistik obyektlarning yetishmasligi kuzatilgani qayd etilgan. Ekoturizm va sog‘lomlashtirish turizmi sohalari bo‘yicha imkoniyatlar mavjud bo‘lsa ham, ularni rivojlanirish uchun chet el bilan tajriba almashish va loyihalarni o‘zimizda tadbiq qilishga ehtiyoj borligini ko‘rish mumkin. Tashrif buyuruvchilar va mavjud turistik-rekreatsion hududlar sig‘imining muvozanatlashtirilishi amaldagi kamchiliklardan biri hisoblanadi.

Buxoro viloyati tarixiy-madaniy hududlarga boy hisoblanadi. Uning turistik imkoniyatlarini qo‘llab quvvatlash yetarli darajada rivojlanmagan. Avvalgi tadqiqotlarning natijalari shuni ko‘rsatadiki sayyoohlilik tashkilotlari va mehmonxona xizmatlari shaharga yaqin hududlarda to‘plangan, biroq ularning ko‘pchiligidagi xizmat sifati xalqaro standartlarning talab darajasida emas. Shuningdek, transport


infratuzilmasining eskirganligi va turizm sohasida malakali kadrlarga ehtiyoj mavjudligi qayd etilgan.

Quyidagi diagrammalar orqali Toshkent va Buxoro viloyatlarining yillik turistlar tashrifi statistikasini ko`rishimiz mumkin.

1-diagramma



2- diagramma



Umumiy xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Transport tuzilmasi, hududiy joylashuv, xizmat ko`rsatish sohalari, ekologik muvozanat va malakali kadrlar yetishmasligi ko`rib chiqilishi zarur bo`lgan masalalar qatorida birinchilardan bo`lib turibdi. Toshkent va Buxoro viloyatlarining turizm markazlari faqat shahar markazlarida rivojlangan. Turistik-rekreatsion hududlarni kompleks tashkil etishda infratuzilmani hududiy rejalashtirish asosida rivojlantirish maqsadga muvofiq.

Toshkent viloyatidagi turistik rekreatsion hududlar

2-jadval

№	Hudud nomi	Asosiy funksiyasi	Xizmat ko`rsatish sohalari
1	Chorvoq	Dam olish, sport, suv turizmi	Mehmonxona, restoran, sport klublar, akvapark
2	Beldersoy	Tog` chang`i sporti, ekoturizm	Mehmonxona, gondola lifti, restoran
3	Amirsoy	Chang`i kurorti, tog` turizmi	Otel, chang`i ijarasi, SPA, kafe
4	Charvak Oromgohi	Oila bilan dam olish, plyaj zonalari	Plyaj, attraksionlar, kafe
5	G`azalkent	O`rmonli dam olish zonasi	Turar joylar, milliy taomlar, ekskursiyalar
6	Yusufhona qishlog`i	Ekoturizm, agro-turizm	Mehmon uylari, dehqonchilik faoliyati
7	Parkent tumani	Tog` turizmi, vino turizmi (uzumzorlar)	Agro-turizm, mahalliy mahsulotlar bozori
8	Zarkent sanatoriysi	Sog`lomlashtirish, balneologik kurort	Davolovchi vannalar, tibbiy xizmatlar
9	Tuyabo`g`iz suv ombori	Suv sporti, baliq ovlash	Ijaraga qayiqlar, ovchilar bazasi
10	Bo`stonliq tumani	Ko`p yo`nalishli turizm (sport, oilaviy)	Ko`ngilochar markazlar, turistik bazalar
11	Oqtosh sanatoriysi	Sog`lomlashtirish, davolash	Termal vannalar, davolash xonalari, shifobaxsh muolajalar
12	Chimgan Oromgohi	Sport majmualari, sanatoriyy-kurort muassasalari	Restoranlar, turizm, sanatoriyy-kurort muassasalari, mehmonxonalar
13	Riverside Restzone	Dam olish, sport, oilaviy dam olish	Kottejlar, basseynlar, restoran, saunalar, bolalar maydonchasi, sport maydonlari
14	Royal Gardens	Dam olish, oilaviy dam olish	Saunalar, otxona, basseyn, akvapark

15	Sazan Tashorskiy	Dam olish, oilaviy dam olish	Kottejlar, restoran, sport maydonlari
----	------------------	------------------------------	---------------------------------------

Buxoro viloyatidagi turistik rekreatsion hududlar

3-jadval

Nº	Hudud nomi	Asosiy funksiyasi	Xizmat ko'rsatish sohalari
1	Buxoro shahri markazi	Tarixiy obidalar, ziyorat turizmi	Mehmonxonalar, gid xizmatlari, restoranlar
2	G'ijduvon	Kulolchilik, xalq amaliy san'ati	Hunarmandchilik markazlari, do'konlar
3	Vobkent minorasi	Tarixiy-me'moriy obida, madaniy turizm	Ekskursiyalar, transport xizmatlari
4	Poykent qadimiy shahri	Arxeologik turizm, tarixiy izlanishlar	Sayyoqlik gidlari, mahalliy ekskursiyalar
5	Romitan tumanidagi dam olish zonalari	Ekoturizm, oilaviy dam olish	Dam olish uylari, milliy taomlar
6	Qorako'l tumanidagi cho'l zonasasi	Ekoturizm, qumli landshaft sayohatlari	Safari, cho'l ekskursiyalari
7	Sitorai Mohi Xosa saroyi	Madaniy-tarixiy muzey, ziyorat joyi	Muzey, turistik gidlari, suvenir do'konlari
8	Bahouddin Naqshband majmuasi	Ziyorat turizmi, diniy-ma'rifiy markaz	Gidlari, ziyoratchilar uchun qulayliklar
9	Qorovulbozor issiq suvlari	Sog'lomlashdirish turizmi	Termal vannalar, davolovchi xizmatlar
10	Olot tumanidagi qadimiy qishloqlar	Eko va etnoturizm	Mahalliy mehmon uylari, folklor dasturlari

Shahar tashqarisidagi turistik-rekreatsion hududlarni tashkil etishda muammolar va cheklovlar.

Toshkent viloyati turistik-rekreatsion hududlarini rivojlantirish bo'yicha keng imkoniyatlarga ega bo'lsa-da, uning rivojlanishi uchun qator muammolar mavjud.

Ekologik tahdidlar. Sayyoqlar tashrifining hajmi ortgani sari dam olish zonalarida chiqindilar yig'ilishi va tabiiy muvozanat buzilishi kuzatilmoqueqa.

Infratuzilmaviy cheklovlar. Tog'li hududlarda yo'l muhandisligi kommunikatsiyalarning rivojlanmaganligi sayyoqlar uchun qulaylik statusini pasayishiga olib keladi.

Hududiy rejalashtirishningning muvofiqlashtirilmagani. Dam olish zonalarining hududda joylashuvi, xizmat ko`rsatish obyektlarning tarqoq rivojlanishi kabilar.

Buxoro viloyatida ham o`ziga hos muammolarga duch kelish mumkin.

Marketing sohasi. Mahsulot va xizmatlarning xalqaro bozorda yetarlicha reklama qilinmasligi. Iqtisodiy taklif omilining oqsoqligi sababli mavjud mahsulotlar va xizmathardan foydalanuvchilar yoki tashrif buyuruvchilar yetarlicha xabardor bo`lolmasligi.

Investitsion to`sqliar. Xususiy investitsiyalarni jalb qilishda qonunbuzarlik, hujjatlashtirishdagi murakkabliklar, korrupsiya, tomonlar huquqlarining noaniqligi kabi muammolarga duch kelinmoqda.

Toshkent va Buxoro viloyatlarida turistik-rekreatsion zonalarni barqaror rivojlantirish konsepsiysi

Toshkent va Buxoro viloyatlarida turistik-rekreatsion zonalarni barqaror rivojlantirish konsepsiyasining ekologiyaga zarar yetkazmagan holda, turizm xizmatharini rivojlantirish, xizmat ko`rsatish sifatini jahon bozori darajasiga olib chiqish va shu bilan birga iqtisodiy o`sishga qaratilgan. Buning uchun e'tiborga olish zarur bo`lgan jihatlar mavjud.

Ekologik barqarorlik. Tabiatni muhofaza qilish, asrash, qayta tiklash va inson ta`sirini kamaytirish.

Ijtimoiy faollilik. Bo`sh ish o`rinlari yaratish, malakali kadrlar tayyorlash, xizmat ko`rsatishning yangi yo`nalishlarini kashf etish.

Iqtisodiy faollilikni oshirish. Mahalliy investrlarni jalb qilish, bizneslar uchun imkoniyatlar yaratish.

Marketing sohasi. Turistik rekreatsion hududlar, ularning xizmatlari va mahsulotlarini reklama qilish, imkoniyatlarini ko`rsatish. Buning uchun turistik zonalardan SMM, Marketing kabi bo`limlar tashkil etish, mashhud blogerlarni jalb qilish maqsadga muvofiq bo`ladi.

Bundan tashqari transport, muhandislik va kommunikatsiya tizimlarini ko`zdan kechirish muammosiz va qulay ishlashini taminlovchi chora tadbirlarni ko`rish lozim.

Shahar atrofi turistik-rekreatsion komplekslari uchun me'moriy-rejalashtirish yechimlari.

Turistik-rekreatsion hududlarni arxitekturaviy rejalashtirishda yoki rekonstruksiya qilishda ularning barpo etilish maqsadi, sababi, funksiyasidan kelib chiqqan holda, ayniqsa tarixiy ahamiyatga ega bo`lgan yodgorliklarda ularning ma`naviy va madaniy qiymatini tushurmagan holda ishlarni amalga oshirish lozim. Landshaft va hududning kichik arxitekturaviy shakllarini rejalashtirishda binolarning funksiyasiga uyg`unlashtirgan holda amalga oshirish kerak. Toshkent va Buxoro viloyatlaridagi turistik-rekreatsion hududlarni tashkil etishda yechimlar hudud xususiyatlariga mos amalaga oshirilishi, bir-birini takrorlamasligi maqsadga muvofiq.

Toshkent va Buxoro turistik-rekreatsion hududlaridagi mavjud namunaviy loyihalar.

Tashkent City Park – Landhaft dizayni yechimlari chiroyli topilgan, zamonaviy texnologiyalar bilan uyg`unlashgan park.

Toshkent botanika bog`i – Reabilitatsiya natijasida yashil maydonlar tiklandi, yangi ekotizim yaratildi.

Zarafshon tabiiy bog`i – Cho`l ekotizimlarini saqlab qolish va ekologik turizmni rivojlantirish uchun yaratilgan.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Turistik-rekreatsion hududlarining rivojlanishi, xizmat ko`rsatish sifati yaxshilanishi uchun tadqiqot va izlanishlar, analizlar mukammal amalga oshirilishi, muammolar kichik birliklarga o`rganilib chiqilishi talab etiladi. Ekologik tahdidlar, infratuzilmaviy cheklovlar, hududiylar rejalashtirishning muvofiqlashtirilmaganligi, marketing sohasi, investitsion to`siqlar kabi muammo va kamchiliklarni bosqichma-bosqich hal qilish orqali turistik-rekreatsion hududlarni rivojlantirish konsepsiyasini yana aniqroq ko`rish mumkin. Keyingi bosqich vazifalarini, ya`ni ekologik barqarorlik, ijtimoiy va iqtisodiy faoliytni oshirish hamda marketing sohalarini rivojlantirish, shuningdek bu islohotlarning barchasini chet el tajribasini o`rgangan va so`nggi texnologiyalardan

mukammal foydalangan holda amalga oshirish maqsadga muvofiq bo`ladi. Bundan tashqari infratuzilmaviy omillarni: transport tizimi, kommunikatsiya va muhandislik tarmoqlariga ham alohida e`tibor qaratish zarur. Turistik hududlarning sifatli xizmat ko`rsatishi uchun yetarli kadrlar yo`qligini hisobga olgan holda, o`z sohasining yetuk mutaxasislarini jalb qilish, bo`lajak mutaxasislarining nazariy hamda amaliy bilim va ko`nikmalarga ega bo`lishi uchun sharoitlar yaratish ko`zlangan natijaga erishish uchun katta ustunlardan biri desak mubolag`a bo`lmaydi. Har bir yo`nalishda rivojlanishni ham, inqirozni ham cho`qqisiga olib chiquvchi eng katta omil bu – inson omildir. Shuni yoddan chiqarmaslik lozimki, aholiga tabiatning inson hayotidagi beqiyos o`rni, unga nisbatan mehribon va ehtiyyotkorona munosabat zarurligi haqida muntazam eslatib borish – nafaqat ekologik madaniyatni shakllantirish, balki barqaror taraqqiyot yo`lida yuzaga keluvchi to`sqliarni bartaraf etishda muhim omil hisoblanadi. Bu masala ham taraqqiyotga to`squinlik qiluvchi sabablar qatoriga, ham esa rivojlanish konsepsiyalarda doimiy urg`u beriladigan muhim omillar qatoriga kiradi.